



O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA GENDER STEREOTIPLARINING IFODALANISHI

Shamshiyeva Diyora Isroilovna

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek xalq maqollarida gender stereotiplarining ifodalanishi va ularning ahamiyati yoritilgan bo'lib, mavzuning mohiyati, uning dolzarbligi, gender stereotiplarining tadqiqi va ularning maqollarda aks etishi tahlil qilingan. Shuningdek, gender stereotipining kontekstual va leksik tahlillari yuzasidan qarashlar umumiy tarzda yoritib berilgan. Gender muammolarini hal etishda gender stereotiplarining lingvistik yechimi ham muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *o'zbek xalq maqollari, barqaror birikmalar, ayollar va erkaklarga oid maqollar, lingvistik tadqiq, gender stereotiplari, gender lingvistikasi.*

THE EXPRESSION OF GENDER STEREOTYPES IN UZBEK FOLK PROVERBS

Abstract: *This article explores the expression of gender stereotypes in Uzbek folk proverbs and their significance. It analyzes the essence of the topic, its relevance, the study of gender stereotypes, and their reflection in proverbs. Additionally, it provides a general overview of contextual and lexical analyses of gender stereotypes. The linguistic resolution of gender stereotypes also plays an important role in addressing gender-related issues.*

Keywords: *Uzbek folk proverbs, stable expressions, proverbs about women and men, linguistic research, gender stereotypes, gender linguistics.*

ВЫРАЖЕНИЕ ГЕНДЕРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ

Аннотация: *В данной статье рассматривается выражение гендерных стереотипов в узбекских народных пословицах и их значимость. Проанализированы суть темы, её актуальность, исследование гендерных стереотипов и их отражение в пословицах. Кроме того, в обобщённой форме представлены контекстуальный и лексический анализы гендерных стереотипов. Лингвистическое решение гендерных стереотипов также играет важную роль в решении гендерных проблем.*

Ключевые слова: *узбекские народные пословицы, устойчивые выражения, пословицы о женщинах и мужчинах, лингвистическое исследование, гендерные стереотипы, гендерная лингвистика.*

KIRISH



Maqollar azal-azaldan har bir xalq ma'naviyati, qadriyatlari, turmush tarzini aks ettiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Xususan, gender stereotiplari shakllanishining tarixiy ildizlari haqida ma'lumot beruvchi eng ishonchli manbalardan biri, shubhasiz, o'zbek xalq maqollaridir. Buning sababi maqollar xalq hayotini yolg'onlarsiz, bo'yoqlarsiz ro'yi-rost ifodalab beradi va shunday xususiyatlarga ega bo'lgan maqollargina asrlar osha yashab kelmoqda.

ASOSIY QISM

O'zbek xalq maqollarini ko'zdan kechirar ekanmiz, genderga xos barqaror birikmalarning juda ko'pligi va ularning jamiyatning barcha jabhalarini qamrab olganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. O'zbek xalq maqollarida gender stereotiplari, umuman, gender stereotipolarini aniqlashda, avvalo, shu millatga xos gender rollarni aniqlashtirib olish maqsadga muvofiqdir. O'zbek xalqiga xos gender jihatlar shundan iborat:

- erkak – jamiyat qo'rg'oni, oila boshlig'i va butun oila mavqeyi, ta'minoti va xavfsizligi uchun javobgar inson;

- oilada hal qiluvchi har qanday qarorni qabul qiluvchi shaxs;
- tengsiz kuch va aql-idrok sohibi;
- o'z his-tuyg'ularini ochiq ko'rsatmaydigan, jiddiy qiyofadagi odam.

Ayollar haqidagi qarashlar bundan anchagina farqli. Ular, asosan:

- ☐ uy bekasi, farzand tarbiyachisi;

- ☐ oila osoyishtaligi, tartibiga mas'ul shaxs;

- ☐ butun hayoti, o'z orzularidan oilasi uchun voz kechishi kerak bo'lgan fidoyi shaxs;

- ☐ sevimli rafika, mehribon ona;

- ☐ aksar hollarda ayollarga nisbatan "aqli kalta", "o'ylamay ish qiluvchi" shaxs sifatida qaraladi.

Yuqorida sanab o'tilgan ta'riflar eng asosiy stereotipik qarashlar bo'lib, bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Va yuqorida aytilganidek, maqollarda turlicha vaziyatlar aks etganining guvohi bo'lishimiz mumkin. T.Yo'ldosheva o'z maqolasida o'zbek maqollaridagi ayol obrazini "uyda tinchlik timsoli" sifatida talqin qiladi va bu obraz tarixiy-madaniy omillar bilan izohlanadi[3]. Masalan, Ayolning sarishtasi – ro'zg'orning farishtasi; Ayolning sunbuli – yigitning dili. Bo'ldiradigan ham xotin, o'ldiradigan ham xotin; Xotin – uyning ziynati, er – mehnati; Eshik ko'rgan yurt buzar, beshik ko'rgan yurt tuzar; Yaxshi xotin belgisi – buxori qilar terini, mullo qilar erini kabi maqollarda, asosan, ayollardagi ijobiy sifatlar ulug'lanib, ularning nafaqat oila, balki yurt ravnaqiga ham beqiyos hissa qo'shishlari ifoda etilgan.

Xalq maqollari orasida ayollar haqidagi ijobiy sifatlardan ko'ra salbiy sifatlarini ochib beruvchi o'rinlar ko'p uchraydi. Shunday bo'lsa-da, maqollardagi har bir vaziyat xalq tarixiy tajribasining dalili bo'lib, bunday salbiy xarakterdagi maqollar "xalqni ogohlikka chaqirish, to'g'ri yo'lga boshlash" maqsadida yaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, Yog'mas bulut elni aldar, yomon xotin – erni; Kelin kimxob kiyar,



qaynona qarg'ab kuyar; Kelling tili yo'q, qaynonaning – iymoni; Kumush xotin kunda – kasal, oltin xotin oyda kasal; Xotinning zo'ri – urning sho'ri; Yaxshi otga qamchi ursang, chopar avaylab, yomon xotin ishin qilar hamisha poylab[1].

. O'zbek xalq maqollarida gender stereotiplari faqatgina er va xotin tavsifidagina iborat emas. Ya'ni gender stereotiplarini o'rganishda ularni tasniflab olish maqsadga muvofiqdir:

- 1) o'g'il bola va qiz bola (o'g'il farzand, qiz farzand);
- 2) ayol va erkak (er va xotin)
- 3) chol va kampir.

Ko'plab o'rinlarda ikkinchi tip leksemalariga duch kelsak-da, tilimizda semantik jihatdan birinchi va uchinchi tipdagi maqollar ham salmoqli o'rin egallaydi. Masalan, Qizing bo'y yetsa, qizi yaxshi bilan qo'shni bo'l, O'g'ling er yetsa, o'g'li yaxshi bilan qo'shni bo'l; Yomon o'g'il boqquncha, etagingni qoq. yomon qizni boqquncha, do'ppingni qoq; Yomon o'g'il – molga o'rtoq, yaxshi o'g'il – jonga; Yigitning chirog'i – qizi bilan o'g'li; Tuz asrama, suv bo'lar, qiz asrama, quv bo'lar.

Cholimning topganini yayrab yeyman, o'g'limning topganini ingrab yeyman; O'roq tutib otang qolguncha, o'ymoq tutib enang qolsin; Onang o'ldi — otang o'ldi.

Zamonaviy tahlillar gender stereotiplariga qarshi chiqayotgan maqollar soni ortayotganini, ayol-erkak rollarining zamon bilan o'zgarayotganini ko'rsatmoqda[2]. O'zbek xalq maqollarida ayol va erkaklarni tavsiflovchi turli ko'rinishlar mavjud bo'lsa-da, ulardan keng tarqalgani yaxshi va yomon sifatlarga ega insonlarning o'zaro qiyoslash orqali bayon qilishdir. Masalan, Xotining yaxshi bo'lsa, to'yga bormoq ne hojat, xotining yomon bo'lsa, azaga bormoq ne hojat; Xotinli ro'zg'or guldir, xotinsiz ro'zg'or cho'ldir; Xotinning yomoni — umrning egovi; Yaxshi xotin arpa unni kabob qilar, yomon xotin bug'doy unni xarob qilar; Yaxshining ketidan qolma, yomonning qizini olma.

XULOSA

Maqollar bir necha asrdan buyon shakllanib kelayotgan bo'lsa-da, ular hozirgi kunda shakllanayotgan stereotiplarga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, o'zbek xalq maqollarida gender stereotiplari ham o'ziga xos tarzda va haqqoniy ifodalangan. Shuning uchun gender tenglik masalasida salbiy bo'yoqdorlik ustunlikka ega. Bugungi kunda esa o'tkazilayotgan ko'plab islohotlar va taraqqiyot natijasida bunday salbiy qarashlar birmuncha o'zgarganini qayd etish lozim. Bu o'zgarishlarning ortishida lingvistik tadqiqotlarning ham salmog'ini oshirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2005.
2. Baker P. (2008). Sexed texts: Language, gender and sexuality. Language and Linguistics Compass, 2(6), 1079-1095.



3. Yo'ldosheva T. ayol obrazining semantik strukturasida milliy tafakkur aks ettirilishi. O'zbek tili va adabiyoti, N/3. 2019.
4. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. T.: Turon zamin ziyo-2015.
5. Kristen Syret. Gender bias in linguistics textbooks: Has anything changed since Macaulay&Brice 1997.
6. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent.: 2007.
7. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi. T.: O'zbekiston, 2003.
8. Ahmedov B.R. "O'zbek tilida gender tadqiqi" Andijon, 2012.